



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 5

2026

SHAHNISABZ HUDUDIDAGI JOY NOMLARINING SHAKLLANISH OMILLARI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Almardonova Moxigul Asqarovna

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, o'qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada Shahrisabz hududidagi toponimlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi tabiiy-geografik, tarixiy, etnik, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy omillar kompleks tahlil qilinadi. Shuningdek, toponimlarning tarixiy taraqqiyot bosqichlari davrlar kesimida o'rganilib, ularning semantik va lingvistik xususiyatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari hududiy toponimikaning tarixiy xotira va milliy merosni saqlashdagi ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so'zlar: toponimika, etimologiya, geografik nomlar, lingvistika, tarixiy rivojlanish, semantika, Shahrisabz, madaniy meros.

ФАКТОРЫ ФОРМИРОВАНИЯ И ЭТАПЫ РАЗВИТИЯ ТОПОНИМОВ ШАХРИСАБЗСКОГО РЕГИОНА

Алмардонова Мохигул Аскаровна

Шахрисабзский государственный педагогический институт, преподаватель

Аннотация

В данной статье представлен всесторонний анализ природно-географических, исторических, этнических, социально-экономических и культурных факторов, влияющих на формирование топонимов на городской территории. Также изучаются этапы исторического развития топонимов в разрезе периодов, освещаются их семантические и лингвистические особенности. Результаты исследования раскрывают важность территориальной топонимии в исторической памяти и сохранении национального наследия.

Ключевые слова: топонимика, этимология, географические названия, Лингвистика, историческое развитие, семантика, городская морковь, культурное наследие.

FACTORS OF FORMATION AND STAGES OF DEVELOPMENT OF PLACE NAMES IN THE SHAHNISABZ REGION

Almardonova Moxigul Asqarovna

Shahrisabz State Pedagogical Institute, Lecturer

Abstract

This article provides a comprehensive analysis of the natural-geographical, historical, ethnic, socio-economic and cultural factors that affect the formation of toponyms in the urban area. Also, the stages of historical development of toponyms are studied in the cross section of periods, and their semantic and linguistic features are illuminated. The results of the study reveal the importance of territorial toponymy in historical memory and the preservation of national heritage.

Keywords: toponymy, etymology, Geographical Names, linguistics, historical development, semantics, Prince, cultural heritage.

Joy nomlari yoki toponimlar insoniyat tarixining muhim manbalaridan biri hisoblanadi. Ular hududning tabiiy-geografik xususiyatlari, tarixiy jarayonlari, etnik tarkibi va madaniy an'analarini o'zida mujassamlashtiradi. Shu sababli toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, etnografiya va geografiya fanlari uchun ham muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, joy nomlari hududning o'tmishdagi tabiiy sharoiti, relyefi, o'simlik va hayvonot olami, qazilma boyliklari kabilar haqida ham qimmatli ma'lumotlar beradi. Bundan tashqari, etnotoponimlar tarkibida ishtirok etgan etnonimlar orqali ma'lum bir hududda qaysi qabila, urug' vakillari yashaganligi, ularning turmush tarzi haqida ma'lumotga ega bo'lish mumkin. Toponimning ma'nosini bilib olish, muayyan hudud haqida ko'plab ma'lumotlarga ega bo'lish uchun toponimik tadqiqotlar olib borish, buning natijasida joy nomlari lug'atini tuzish kerak bo'ladi. Bugungi kunda bunday lug'atlarga ehtiyoj

nihiyatda katta.

O'zbekiston hududida joy nomlarini o'rganish masalasi ko'plab olimlar tomonidan tadqiq qilingan. Ayniqsa, ayrim viloyatlar toponimikasini o'rganish hudud tarixini tiklash va milliy madaniy merosni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Shahrisabz qadimdan Markaziy Osiyoning muhim madaniy markazlaridan biri bo'lib, bu hududda turli davrlarda shakllangan joy nomlari tarixiy taraqqiyotning muhim manbai sifatida xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — hududdagi toponimlarning shakllanish omillarini aniqlash va ularning rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda tahlil qilishdir.

Asosiy qism. Qashqadaryo viloyati qadimiy tarixga ega hududlardan biri bo'lib, bu yerda shakllangan joy nomlari ko'p asrlik tarixiy jarayonlarning mahsuli hisoblanadi. Tadqiqot metodologiyasi — mazkur tadqiqotda ilmiy tahlil, qiyosiy-lingvistik, tarixiy va semantik tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, hudud toponimlari quyidagi mezonlar asosida tahlil qilindi:

- tarixiy manbalarga asoslangan tahlil;
- lingvistik va etimologik tahlil;
- geografik va madaniy xususiyatlarni aniqlash.

Mazkur metodlar yordamida joy nomlarining hudud tarixidagi o'rni va ahamiyati aniqlab berildi.

Qashqadaryo viloyatining eng qadim tarixga ega bo'lgan tumanlaridan biri Shahrisabz tumanidir. Shahrisabz tumani toponimlari tarixi o'zi kabi qadim davrlarga borib taqaladi. Uning shakllanishiga bir necha omillar ta'sir ko'rsatadi. Quyida shu omillar tahlil qilinadi.

1. Tabiiy-geografik omillar. Toponimlarning shakllanishida eng qadimgi va asosiy omillardan biri tabiiy muhit hisoblanadi. Shahrisabz hududi tog'li va vodiqli relyefga ega bo'lib, bu yerda ko'plab joy nomlari aynan tabiiy xususiyatlarga asoslangan. Masalan, suv obyektlari nomlari ("Oqsuv", "Qashqa"), tog' va tepaliklar ("Hisor") hududning geografik belgilarini ifodalaydi. Bunday nomlar ko'pincha tasviriy xarakterga ega bo'lib, ular insonlarning tabiatni idrok etish darajasi bilan chambarchas bog'liq.
2. Tarixiy omillar. Shahrisabz hududi qadimgi sivilizatsiyalar chorrahasida joylashganligi sababli, bu yerda shakllangan toponimlar turli tarixiy davrlar izini saqlab qolgan. Qadimgi Baqtriya, Sug'diyona, keyinchalik Temuriylar davriga oid nomlar bunga misol bo'la oladi. Ayrim joy nomlari tarixiy voqealar yoki mashhur shaxslar nomi bilan bog'liq holda yuzaga kelgan. Bu esa toponimlarni tarixiy manba sifatida o'rganish imkonini beradi. Misol tariqasida qator qishloqlar keltiriladi:

Balxi — qishloq. Qashqadaryo viloyatining Shahrisabz, Qarshi tumanlaridagi qishloqlar nomi. Balx — Afg'onistondagi qadimiy shahar. Balx+-i — balxlik, Balx shahri, viloyatidan kelgan kishi(lar). Balx/balq/baliq — turkiy tillarning eng qadimgi davriga xos so'z, ma'nosi — qo'rg'on, qishloq, shahar. Qashqadaryo qovchinlarining balxi urug'i mavjud.

Dektar — qishloq. Qashqadaryo viloyati Shahrisabz tumanidagi qishloq nomi. Nomning qadimiy shakliga asos bo'lgan so'z — bo'ktir (bo'ktar). Mahmud Koshg'ariyda bo'ktir — tog'lardagi past-baland yer. Qozoq tilida bo'ktur — tog'lardagi past-baland yer, qirg'iz tilida bo'ktur — tog' etagidagi tepalik. Bo'ktar so'zining dialektal o'zgarishidan dektar so'zi kelib chiqqan. Demak, Dektar — tog' etagidagi qishloq, balandlik yonidagi qishloq ma'nosidir.

3. Etnik omillar. Hududda turli etnik guruhlar yashab kelganligi sababli, joy nomlarida ularning izlari yaqqol namoyon bo'ladi. Qabila, urug' yoki elat nomlari asosida shakllangan toponimlar etnik tarixni o'rganishda muhim manba hisoblanadi. Masalan, ayrim qishloq nomlari o'sha hududda yashagan urug' yoki qabilaning nomi bilan atalgan bo'lishi mumkin.
4. Ijtimoiy-iqtisodiy omillar. Toponimlar ko'pincha hudud aholisi shug'ullangan asosiy xo'jalik faoliyati bilan bog'liq holda shakllanadi. Shahrisabz hududida dehqonchilik va bog'dorchilik rivojlanganligi sababli "Bog'zor", "Dehqonobod" kabi nomlar keng tarqalgan. Bu turdagi toponimlar iqtisodiy hayotning tarixiy rivojlanishini aks ettiradi.
5. Madaniy va diniy omillar. Muqaddas joylar, ziyoratgohlar va diniy inshootlar bilan bog'liq toponimlar ham muhim o'rin tutadi. Bu nomlar hudud aholisi e'tiqodi va ma'naviy qadriyatlarini aks ettiradi. Shuningdek, mashhur tarixiy shaxslar nomi bilan bog'liq joy nomlari ham keng uchraydi.

Toponimlarning rivojlanish bosqichlari quyidagi davrlarga bo'linadi:

1. Qadimgi davr. Bu davrda toponimlar asosan tabiiy muhit asosida shakllangan. Nomlar sodda va aniq ma'noga ega bo'lib, ko'pincha tasviriy xarakterga ega bo'lgan.

2. O'rta asrlar davri. Bu davrda siyosiy va madaniy jarayonlar kuchayishi natijasida toponimlar murakkablasha boshlagan. Diniy tushunchalar, hukmdorlar va tarixiy shaxslar nomlari joy nomlarida aks eta boshlagan.
3. Yangi davr (XVIII–XX asrlar). Qashqadaryo viloyati hududidagi toponimlar turli davrlarda yashagan xalqlarning madaniyati, turmush tarzi va ijtimoiy hayoti haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi. Shu bois mazkur hudud toponimlarini o'rganish hudud xotirasini tiklash va tarixiy jarayonlarni chuqurroq anglash imkonini beradi. Bu davrda iqtisodiy va ijtimoiy o'zgarishlar natijasida yangi aholi punktlari paydo bo'ldi. Shunga mos ravishda yangi toponimlar shakllandi va ayrim eski nomlar o'zgarishga uchradi.

Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarni tiklash jarayoni natijasida tarixiy nomlarga qaytish tendensiyasi kuchaydi. Yangi toponimlar milliy o'zlikni ifodalashga xizmat qilmoqda. Shahrisabz hududidagi toponimlar tilshunoslik nuqtai nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. Ular fonetik, morfologik va semantik jihatdan tahlil qilinishi mumkin.

Ko'plab toponimlar qadimgi turkiy, forsiy va arabiy unsurlarni o'zida mujassam etgan bo'lib, bu hududning ko'p qatlamli tarixidan dalolat beradi.

Toponimlar hudud xotirasining muhim manbasi sanaladi. Toponimlar hududning tarixiy xotirasini saqlashda muhim rol o'ynaydi. Ular orqali qadimgi aholi turmushi, iqtisodiy faoliyati va madaniy an'analari haqida muhim ma'lumotlarni bilish mumkin.

Shahrisabz toponimlarining lingvomadaniy xususiyatlari. Shahrisabz tumani toponimlari lingvomadaniy jihatdan ham boy hisoblanadi. Ular xalq og'zaki ijodi, urf-odatlar va madaniy qadriyatlar bilan chambarchas bog'liq. Masalan, ayrim joy nomlari xalq orasida mavjud bo'lgan rivoyatlar yoki tarixiy voqealar bilan izohlanadi. Bu esa toponimlarning nafaqat lingvistik, balki madaniy va ma'naviy ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Toponimlarni o'rganish orqali hududning tarixiy-madaniy merosini saqlash va kelajak avlodlarga yetkazish mumkin. Shu sababli toponimika fanining rivojlanishi milliy madaniyatni o'rganish va rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot natijalariga ko'ra quyidagi xulosalarga kelindi:

- Shahrisabz toponimlari ko'p qatlamli tarixiy jarayonlar natijasida shakllangan.
- Joy nomlarining aksariyati hududning tabiiy-geografik xususiyatlari bilan bog'liq.
- Ayrim toponimlar hududda yashagan etnik guruhlar yoki tarixiy voqealar bilan bog'liq holda shakllangan.
- Toponimlar hududning tarixiy xotirasini saqlashda muhim ilmiy manba hisoblanadi.

Xulosa. Shahrisabz hududidagi joy nomlari murakkab va ko'p qirrali jarayonlar natijasida shakllangan bo'lib, ular hududning tarixiy, madaniy va ijtimoiy hayotini aks ettiradi. Toponimlarni o'rganish nafaqat tilshunoslik, balki tarix, geografiya va madaniyatshunoslik fanlari uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shahrisabz toponimlarini o'rganish hudud tarixini, madaniy merosini va etnomadaniy jarayonlarini tadqiq qilishda muhim ilmiy ahamiyatga ega. Joy nomlari hududning tabiiy sharoiti, tarixiy voqealari hamda xalqning turmush tarzi haqida muhim ma'lumotlarni saqlab keladi. Shu bois toponimlarni ilmiy jihatdan o'rganish va ularni tizimli ravishda tadqiq qilish hudud tarixini tiklash hamda milliy madaniy merosni saqlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelgusida Shahrisabz tumani toponimlarini yanada chuqurroq o'rganish hududning tarixiy va madaniy rivojlanishini yanada kengroq yoritish imkonini beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Begmatov E., Uluqov N. O'zbek onomastikasi terminlarining izohli lug'ati. — Namangan, 2006.
2. Nafasov T. O'zbekiston toponimlarining izohli lug'ati. — Toshkent: O'qituvchi, 1988. — 398 b.
3. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi**. 12 jildlik. — Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2000–2006.
4. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. I jild. Turkiy so'zlar. — Toshkent: Universitet, 2000. — 600 b.
5. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. II jild. Arabcha so'zlar va ular bilan hosila so'zlar. — Toshkent: Universitet, 2003. — 600 b.
6. Rahmatullayev Sh. O'zbek tilining etimologik lug'ati. III jild. — Toshkent: Universitet, 2009.